

O'ZBEK TASVIRIY SAN'ATIDA MAISHIY JANRNING AHAMIYATI

Meliqo'ziyeva Sarvinozxon Odiljon qizi

O'zbekiston Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti Tasviriy san'at fakulteti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *O'zbekistonda ijod qilgan rassomlar va boshqa davlatlarda ijod qilgan xamda maishiy janrning rivojlanishiga xissa qo'shgan rassomlarning ijodlari solishtirilib o'rganildi. Kontent-analiz uslubidan foydalanilgan holda maishiy janr bilan bog'liq olib borilgan ishlar tahliliy jihatdan ko'rib chiqilib kerakli ma'lumotlar va natijalar olindi.*

Аннотация. *Были сопоставлены и изучены произведения художников, творивших в Узбекистане, и художников, творивших в других странах и внесших вклад в развитие бытового жанра. С помощью метода контент-анализа были аналитически проанализированы произведения, относящиеся к бытовому жанру, и получены необходимые данные и результаты.*

Annotation. *The works of artists who created in Uzbekistan and artists who created in other countries and contributed to the development of the household genre were compared and studied. Using the method of content analysis, the works related to the household genre were analyzed analytically and the necessary data and results were obtained.*

Tayanch iboralar. *Kompozitsiya, assimetriya, simmetriya, kompozitsiyon yechim.*

Maishiy janr ishtirokchilarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega bo'lib obrazlar xarakteri odatda janrlar vositasida yechim topadi. Musavvirlarning maishiy janrida ko'p figurali kompozitsiyalar real rang yechimi bo'lgan asarlar yartilishda o'tmish voqealari va tabiat manzaralari ilhomlantiradi. Kartinalarda faqat tarixiy, qahramonona voqea va hodisalarnigina emas, balki oddiy hayotni ham tasvirlash mumkin. Bunday kartinalar maishiy janr asarlari hisoblanib, ko'pincha ular janrli rangtasvir asarlari deb yuritiladi. Asosan bu voqealar rangtasvir polotnolarida tasvirlanadi, lekin ularni grafikada va xaykaltaroshlikda ham uchratish mumkin.

Shu o'rinda maishiy janrda asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, mehnat, kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lib ularda ko'proq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks etirilladi. Maishiy janrlardagi

asarlari nafaqat hozirgi kun odamlarning balki, o'tmish kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng ma'lumot beradi. Uning janrlardan biri maishiy janr haqida tushunchaga ega bo'lamiz. Har bir janr o'z o'rniga yana bir qancha janrlarga bo'lishimiz mumkin.

Maishiy janrda ijod qilish boshqa janrlarga nisbatan ancha murakkab bo'lib uning ishlash jarayonida insonning fikrlash qobiliyati dunyoqarashi juda katta ahamiyatga egadir. Kartinalarda faqat tarixiy, qahramonona voqea va hodisalarnigina emas, balki oddiy hayotni ham tasvirlash mumkin. Bunday kartinalar maishiy janr asarlari hisoblanib, ko'pincha ular janrli rangtasvir asarlari deb yuritiladi. Asosan bu voqealar rangtasvir polotnolarida tasvirlanadi, lekin ularni grafikada va xaykaltaroshlikda ham uchratish mumkin. Rassomlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan maishiy voqealar o'sha davrlarda yashagan odamlarning hayoti bilan tanishtiradi. Bu janr XV-XVII asrlarda Yevropa milliy maktablarida gullab yashnadi. Bunga misol qilib P.Breygelning "Kretyanning to'yi" kartinasini keltirish mumkin.

Maishiy janr-jamiyat va shaxsiy xayotdagi kundalik turmush tarzini o'zida aks ettiruvchi tasviriy san'at janri. Bu janrda rassom (haykaltarosh) o'z zamonasidagi kundalik turmushda bo'layotgan voqea va xodisalarni, odamlarning yashash tarzi, dam olishi, mehnati va sport bilan shug'ullanishi, xullas ularning kundalik faoliyati bu janrning mazmunini tashkil etadi.

Insonlarning maishiy hayotini aks ettirishga qiziqish qadimdan mavjud bo'lsa ham lekin uning rivojlanishi va mustaqil janr darajasiga aylanishi XVII asrdan boshlab jamiyatda sodir bo'la boshlagan demokratik tamoyillarni ortishi bilan bog'liq. Shu davrdan boshlar rassomlar ijodida oddiy xalq xayotiga bag'ishlangan asarlari ko'paydi, mavzusi kengaydi. Bu janr Gollandiyada keng rivojlandi. Buyuk Rembrandt, kichik gollandlar Piter de Xoox, Terborx, Yan van Ostade va boshqalar ijodida shu janr etakchi o'rinni egalladi. Fransiyada Jan Batist Sharden, Angliyada Uilyam Xogart, Rossiyada P.Fedotov, V. Perov, I.Repin va bosh. ijodida ham shu janr xususiyatlari o'z ifodasini topdi. O'zbek san'atida maishiy janr XX asrning 20-30 yillaridan boshlab rivojlana boshladi. B.Xamdamiy, L.Abdullaev, X.Raxmonov, Z.Inog'omov va boshqalar shu janrning dastlabki namunalarini yaratdilar. N.Kashina, Z.Kovalevskaya, M.Saidov ijodida xam shu janr etakchi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ham bu janr ko'plab ijodkorlarni o'ziga jalb etib kelmoqda

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar O'rta Osiyoda ham ko'plab topiladi. Bunga XV asrda yashab ijod qilgan o'z davrining yetuk rassomi Kamoliddin Behzodni misol qilib olish mumkin. Sharqda esa juda mashhur Leonardo Da Vinchi, Ilya Repin, Inog'omovlar ham ijod qilishgan. U 1452-1519 yillarda yashab ijod etgan. U Italyaning Vinchi shahrida tug'ilgan. U rassomchilik bilan

bir qatorda boshqa yo'nalishlarda ham ijodiy ish olib borgan. Rassomning eng mashhur "Sirli tun" deb nomlangan. Bu asar 1495-1447 yillarda yaratilgan bo'lib unda Milan shahrining Santa Mariya ibodatxonasida ro'y bergan fojiviy voqea tasvirlanadi. Ma'lum bo'lishicha o'z ustozlariga umrbod sodiq shogirdlar orasidan sotqin chiqadi.

Asarda Iso payg'ambar o'z shogirdlari bilan birgalikda muhokama etishi aks ettirilgan rassom suratda insonlarning his-hayajonlarni nihoyatda keng shu bilan birga asardagi obraz va detallarni bir-birlari bilan uyg'un holda muvofiqlashgan. Rassomni mashhur qilgan asarlardan biri "Madonna", "Jakonda" deb atalgan. Leonardo Da vinchi o'z hayotida ko'plab yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdi. Ulardan "Madonna Benual", "Madonna Litta", "Qoyadagi Madonna" "Gul ushlagan Madonna", "Oq sichqon ushlayotgan ayol" va boshqalarni tilga olish mumkin. Daho Leonarda da Vinchining asarlari kishilarni o'ylashga, go'zallikni tushunishga va qadrlashga o'rgatib kelmoqda. Uning betakror ijodi barcha davr rassomlari uchun namuna va tajriba maktabi bo'lib qolaveradi. Leonardo Da Vinchi uyg'onish san'at davrlaridan biri.

Maishiy janrda personajlarning o'zaro aloqasi juda muhim bo'lib, obrazlar rang yordamida yaratiladi. Biz avvalo kartinaning syujetiga, nima tasvirlaganiga e'tibor beramiz, keyin esa uning bo'yoqlari, qanday ishlangani va ishlanish uslubiga e'tiborni qaratamiz. Chunki kartinaning kayfiyati, elyutsional ta'siri undagi ranglarning qanday tanlanganiga bog'liq. Kartinaning koloriti quvnoq va g'amgin, tinch va qayg'uli, sirli va aniq bo'lishi mumkin.

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va g'oyani ochib beruvchi voqea bilan bog'liq va voqeaning eng hususiyatli, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi. Inson yashab turgan muhitda sodir bo'layotgan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonlarda paydo bo'lgan.

O'tgan asrning demokratik rassomlari halq hayotini astoydil haqqoniy, tasvirlab berganlar. Bunga I.Repinning "Yangi kuyovni kuzatish", E.Makovskiyning "Hiyobonda", V.Perovning "Uchovlon" va boshqa suratlari o'ziga misol bo'la oladi. Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi tasviriy san'at maishiy janrning bir qator asarlarida o'z aksini topdi. V. Laktinovning "Frontdan hat" F.Reshetnikovning "Yana ikkimi", "Ta'tilga keldi" asarlarida Vatanga Muhabbat, maktab hayoti bilan bog'liq goyalar tasvirlangan.

Maishiy janrda ham kompozitsiyaning talablari mavjud. Mazmun va g'oyani kompozitsiyaning ma'lum vositalarida ochib berish: ko'rish nuqtasi ufq, fazoviy uzoqlashish, shuningdek, kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug'ligi, tus, rang, kolorit munosabatlariga rioya

qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'g'ri foydalana bilish kerak. Kompozitsiya tuzilishi hona chekkasi interer yoki ochiq havoda bo'lsa-da, asosiy o'rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi.

Rassomning hayotni kuzatishi natijasida bo'lgan mavzuga oid ko'plab bajarilgan homaki chizgi, etyud, eskizlar kompozitsiya tuzilishiga asos bo'ladi. Ikki, uch figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki ishhonada odamlarning mehnat qilish yoki dam olish jarayonini tasvirlash uchun uning kasbi, karakterini, hayotdagi voqeaning qiziqarli holatini o'rganish lozim. Naturadan bajarish bilan bir qatorda hayoldan va tasavvur qilib ishlashni, mashq qilishni odatga aylantirish kerak. Bularning hammasi badiiy ijod jarayonining o'sishiga, tasavvurini boyitishda muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

A.Ivanovning o'zining "Plyajdagi bolalar", "Isoning halqqa ko'rinishi" insonni tabiat qo'ynida ochiq havoda tasvirlanishiga, nafis, mohirona ishlanganligi, quyosh nuri yoritilganligi, tabiatdagi dam olayotgan bolalar, bo'y barovar turli holatda tasvirlangan A.Ivanov ijodining g'oyaviy yo'nalishi, plener, realistik peyzaj, portret, syujetli kompozitsiya yaratishdagi rus sayyor rassomlari uchun badiiy maktab, ko'rgazmali bir namuna bo'lib hizmat qiladi.

Tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy botal asarlarda ham vosita sifatida muhim rol uynaydi. Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar. Maishiy asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va inson obrazini yaratadi. Tasviriy san'atdagi maishiy janriga oid asarlar insonga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va botal mavzudagi asarlarda bevosita maishiy janrga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Urushdan keyingi yillarda muntazam tashkil etilgan Respublika, sobiq ittifoq badiiy ko'rgazmalar, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Maishiy hayotni yangicha his etish, yangicha talqin qilish hissiyoti paydo bo'la boshladi. Rassom sanoat, shahar, lirik voqealarni aks ettirmasin tabiatga ishtiyoqi ortib bordi. XX asrni 50 nchi yillari o'zbek manzara janrida Urol Tansiqboev karvonboshi bo'lib qoldi. Qishloq xo'jalik tematikasiga oid asarlar yarata boshladi. 1950 yili «O'zbekistonda bahor», «Paxtani sug'orish» asarini yaratdi. Erta bilan esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatni uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Hayotni ob'ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishini epik holatda yuzaga kelishi «Ona o'lka» asarida (1951 y) o'z aksini topdi. Kompozitsiya echimini panorama usulida echish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa cho'lni ochishga bag'ishlangan «Taxna-Tashu» va «Issiq ko'l» nomli asarlarida namoyon

bo'lad. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir. «Qayraqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V. Veymarn, U. Tansiqboev Moskva Izd. Iskusstva 1958 g). Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq ko'rgazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan.

Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san`at muzeyida saqlanmoqda. Oldimizda katta keng gidroelektrostantsiyani qurilishi panoramasi, orqasida biryuza rangli qayroqum dengizi yoyilgan kompozitsiya markazi ham gidrostantsiya qurilishi. Qurilishi hali nihoyasiga etmagan. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi qayroqumda haqiqatni poetik talqin etilishi bilan manzara asarida mahoratini ko'rsata bilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tuslardagi kontrast pushti, tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatni bepoyon kengligidagi qaynoq hayot o'z aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan. U.Tansiqboev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratdi. «Almaliqda» 1958 y., «Tsement zavodi» 1960 y., «Charvak GES qurilishida» 1969-1970 y. asarlari shular jumlasidandir. Ural Tansiqboev diapazoni keng rassom.

O'sha davrdagi kekxa rassomlar O. Tatevosyan, M. Novikov, A. Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O'zbekiston tabiati va hayotdagi sodir bo'layotgan yangiliklarni aks etdirdilar. Z. Kovalevskaya, Z. Inog`amov, N. Qo'ziboev, K. Bogaduxov, G. Ulko, M. Esin, N. Shurigin kabi rassomlar O'zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar.

Keyingi davrlarda maishiy, tarixiy va batal janrlari orasidagi chegaralar yo'qolib ketdi. XX asr maishiy janrining rivojlanishi murakkab va turli-tuman yo'ldan ketdi. Bu davr kartinalariga psixologik nyuanlar va o'zgaruvchan voqealar xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abdullayev N. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflar ilmiy jamiyati, 2007. - 236 b.
2. Абдирасилов С.Ф., Бойметов Б.Б., Толипов Н.Х. Тасвирий санъат. –Т.: 2010 35 б
3. М.Набиев., Рангшунослик. – Тошкент. “Ўқитувчи”, 1996 й. 31 б
4. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства. Ўзбекистана. – М.: 1965.
5. “Р.Ҳасанов, “Тасвирий санъат асослари”, Тошкент, 2009 й. 11 б